



O'zbek xalq dostonlari

“SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK
KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2006

Aytuvchi: **Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li**

Nashrga tayyorlovchilar:

To'ra Mirzayev va Zubayda Husainova

T a h r i r h a y ' a t i:

Omonulla Yunusov (hay'at raisi), Ahror Ahmedov (hay'at raisi o'rinbosari), Mamatqul Jo'rayev, Erkin Malikov (hay'at kotibi), To'ra Mirzayev, Abiir Musoqulov, Muhammadali Qo'shmoqov, Shomirza Turdimov, Ibodulla Shoymardonov

R a s s o m:

Temur Sa'dullayev

Go'ro'g'li: O'zbek xalq dostonlari / Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li; Tahrir hay'ati: O. Yunusov, A. Ahmedov, M. Jo'rayev va boshq./ Rassom T. Sa'dulla. — T.: Sharq, 2006. — 448 b.

“Go'ro'g'li” turkumi dostonlari yuzga yaqin xilma-xil mazmundagi asarlarni o'zida birlashtirgan ulkan silsiladir. Xalq baxshilari bu turkumga kiruvchi dostonlarni sevib kuylab kelganlar. Ushbu jildga Rahmatulla shoir Yusuf o'g'lidan yozib olingan 27 doston kiritildi. Ularda afsonaviy xalq qahramonining tug'ilishi, uning bahodirona yoshligi, jasoratlarga to'la hayoti, ozodlik o'lkasi — Chambil shahrining bunyod etilishi, asrandi farzandlar — Hasanxon va Avazxonlarning Chambilga keltirilishi, ularning bahodirliklari turli-tuman sarguzashtli voqealar girdobida tasvirlanadi. Dostonlar qahramon va sevimli yor sadoqati, ota-ona va farzand burchi, birodarlik va do'stlik, ona yurtga muhabbat masalalaridan bahs etadi. Har bir doston badiiy mukammalligi va jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb eta oladi.

BBK 82.3(SU)



BALOGARDON





Ch ambilda o'shak, g'iybat, angki-dungki juda ko'payib, Go'ro'g'li sulton shuncha o'z aqlini o'zi o'ngaraman, deb ko'rgani bilan qaytama chigallashib, battar kallavaram bo'lib ketar edi. Ahmad sardor: "Xotindan oqsoqol chiqsa, echkini ikki qirqar. Mana, Go'ro'g'li ham avval chiqishda bir mard bo'lib chiqdi-yu, keyin oshiqlik balosiga giriftor bo'lib, insonga do'stlik qilmaydigan shu pari xotinlarni deb, shularning bergan maslahatidan chiqmay, beklarni so'ziga kirmay, chiltonni o'zidan qochirib, xudoga sajda qilmay, shu qizg'oldoqchalariga sajda qilib, qul bilan ayolga dast berganlaridan Bekpo'lat poshoday bir sardordan qo'rqib qoldi. Bo'lmasa, qayt yili Chambilga besh podsho yov bo'lib kelganida ham shu Go'ro'g'li ish ko'rsatgan edi", — deb bir necha bema'ni nashavandlarni laqillatdi. Kazo va kazo degan gaplar kun sayin Og'a Yunus pari bilan Misqol parining ham, Go'ro'g'li sultonning ham qulog'iga kelib quyula berdi. Qo'rg'onning boshini to'p buzar, deganday Go'ro'g'li sulton ham: "Agar shunday bo'lsa, shu manjalaqi ayollarimdan kechayin-da, Ahmad sardor tog'amning, nima desa, gapiga kirayin. Borib tog'amga aytinglar, kelib menga beradigan nasihatini bersin", — der edi. Bu gaplar aylanib, battar bo'lib, Og'a Yunus pari bilan Misqol parining quloqlariga yetib, oxiri parilar maslahatlashib: "Agar bizlarning yurganimiz shu Chambilga ko'plik qilgan bo'lsa, Go'ro'g'li sultonning suyanchig'i shu G'irotni olib, bu yurtdan ketayik. Qani, dushmanlarning so'ziga amal qilib, bir ko'rsin, deyishib, bir sahar turishib, G'irko'k jonivorni tabladan chiqarib, abzallab, Og'a Yunus pari minib olib, Chambilning qo'rg'onidan hatlatib o'tib, Iram bog'ining yo'lini tutib, Misqol pari havoda kaptar bo'lib uchib, G'irko'k ham undan qolishmay, falakda parvoz aylab, Chambildan ketdi. Go'ro'g'li sulton parizod xotinlaridan ayrilib, parilarni izlagani qudrati kelmay, ko'kragini zah joyga berib, ingranib yota berdi.

Shu ahvolda oradan ko'p vaqtlar o'tdi. Kunlardan bir kuni: "Yuringlar, Go'ro'g'li sultonni ko'rayik, holini so'rayik", — deyishib, Xoldor mahram, Avaz o'g'lon, Hasanxonlar yig'ilishib, Go'ro'g'li sulton yotgan uyga kirishdilar. Ammo Go'ro'g'li sulton o'rnidan turib so'zlashgani ham madori kelmay, bechora kallasini chayqab, yum-yum yig'lay berdi. Shunda Xoldor mahram ham, Hasanxon ham, Avaz o'g'lon ham sultonning holiga ko'p achindilar. Ammo chorasiz achinishning hech keragi yo'qday edi. Shunda Avaz o'g'lon ko'nglida: "Hay, attang-ay, otam toza ovora bo'lib, qariyb halok bo'lishiga yetibdi", — deb ko'ngli jo'sh urib, g'ayrat kamarini mahkam boylab, parilarni izlashni sultondan talab aylab, otasiga qarab, bir so'z dedi:

Ijozat tilayman, turkman sultoni,
Jo'sh urib bolangning qaynaydi qoni,
Iram boqqa boray bo'lsa imkoni,
Javobman jo'natsang Avaz o'g'lonni.

Tavakkallar qilib qaynab-jo'shayin,
Iram bog'ning yo'llariga tushayin,
Ota, bir o'zimga bergin ijozat,
Parilarni op kep senga qo'shayin.

G'ayratim kelganda haddan oshayin,
Bu dunyoda ko'p yilgacha yashayin,
Ota, bir o'zimga bergin ijozat,
Jon enamni op kep senga qo'shayin.


Otajon, sevganing qo'sha paridir,
Parizod nazardor sulton yoridir,
Pari deb darmoning toza quridi,
Dunyoda ayroliq jonning sho'ridir.

Sulton otam, toza bo'psan ovora,
Bunday pilla yig'laganman na chora,
Bir o'zimga agar bersang ijozat,
Dardingga izlasam yurib bir chora.

Shamol kelar pita cho'pni irg'itib,
O'n odim beriga tuproqlar otib,
Ota, bir o'zimga bergin ijozat,
Diq bo'lipsan enamlarni yo'qotib.

Avazday bolangga bergin ijozat,
Bekorga g'am chekmoq bunda na hojat,
Ko'hi Qofga bora nasib aylasa,
Borib enamlarni aylay ziyofat.

Izlaganin topar oxir o'lmagan,
O'lib ketar safaridan kelmagan,
Mayli deb bir menga bergin fотиha,
Ota, shundan boshqa iloj qolmagan.



Bu soʻzni Goʻroʻgʻli sulton eshitib, tuyaga ha degan madad, deganday, ingranib oʻrmidan turib, Avaz oʻgʻlonga qarab, bir soʻz dedi:

Qoʻy, bolam, bekorga sarson boʻlasan,
Iram bogʻni qaydan topib olasan,
Koʻhi Qofi uch yuz yillik yoʻl boʻlsa,
Qaytib u yoqlarga borib kelasan?

Men soʻzlagan soʻzlar soʻzning sarasi,
Oʻzingsan Chambilning oʻgʻlon, toʻrasi,
Qaytib u yoqlarga borib kelasan,
Uch yuz yillik yoʻl boʻlsa gar orasi.

Iramning yoʻlini birov bilmasa,
Koʻhi Qof axtargan qaytib kelmasa,

Shunday qilib, Xoldor mahram, Hasanxon va Avaz oʻgʻlonlar Goʻroʻgʻli sulton yotgan xonadan chiqdilar. “Er yigitning jiloviga qoqmoq yomon boʻladi. Koʻngliga bir irim olib qolar”, — deyishib, Xoldor mahram bilan Hasanxon indamadilar. Ammo Avaz oʻgʻlon Xoldor mahram bilan Hasanxonga qarab, fотиha soʻrab, bir soʻz dedi:

Tavakkal yoʻliga tushdim, ogʻalar,
Safar qilsam, yurak cheri chiqalar,
Yoru yoronlarim orqada qolar,
Bilmam u yoqlarda holim ne boʻlar?

Ayroliqni derlar dashtu qiyomat,
Koʻz koʻrmagan yurtda yetmish bir ofat,
Tavakkal yoʻliga tushdim, ogʻalar,
Oq fotiha bilan bering ijozat.

Himmat tayogʻiga mahkam tayana¹,
Gʻofil boʻlmay, har kun erta oʻyona²,
Tavakkal yoʻliga tushdim, ogʻalar,
Bir fotiha bering, boʻlay ravona.

Qalandarday huv, deb bellardan oshib,
Koʻz koʻrmagan elatlarga ulashib,

Avaz oʻgʻlonning bu soʻzini eshitib, Xoldor mahram bilan Hasanxon shoshib, Avaz oʻgʻlonga ijozat berarini ham, bermasini ham bilmay: “Mardning jilovini qoqqan, bir yoqqa borayotganida, borma, deb oldiga chiqqan yomon boʻlar, Avaz oʻgʻlon koʻngliga irim olar”, — deyishibdi. “Hay, mayli, uka! Boʻlmasa, omon bor, sogʻ kel! Boshqa nima ham der edik”, — deyishib, ijozat berishib, shu turgan joylarida qotib, hayratga botib, lol boʻlib qola berdilar. Avaz oʻgʻlon boʻlsa, hovlisining darvozasidan yori Gulqizoyni chaqirib olib, shunda Gulqizoyga qarab, bir necha joydan timsol keltirib, shu soʻzni aytdi:

Omon boʻl, dildorim, ketmali boʻldim,
Iram bogʻning yoʻlin tutmali boʻldim,
Gʻirkoʻk bilan xon otamning yorlarin,
Izlab gʻayri yurtga oʻtmali boʻldim.

Qaytib u yoqlarga borib-kelasan,
Beray desam Gʻirkoʻk otim boʻlmasa.

Yolgʻon ekan pari xalqin soʻzlari,
Birdan gʻayri ekan asli koʻzlari,
Oxir shuytib ketdi-bordi, naylayin,
Odamzodni vafosiz deb oʻzlari.

Hasratda qop ketdi Goʻroʻgʻli sulton,
Boʻlibon bu koʻngil kaʼbasi vayron,
Bor deb ham aytmayman, bormagin deb ham,
Yana himmatingga bogʻliq, Avazxon.

Tavakkal yoʻliga tushdim, ogʻalar,
Omon boʻnglar qoʻl bilan qoʻl ushlab.

Gʻam chekib yomondir otamning holi,
Bu gaplarning bari taqdir azali,
Tavakkal yoʻliga tushdim, ogʻalar,
Bechoraning bizga boʻpti vuboli³.

Havodagi qushga tulki boqolmas,
Burgut uyasiga laylak chiqolmas,
Fotiha beringlar menga, ogʻalar,
Yo, huv, deb tavakkal qilmasam boʻlmas.

Bir himmat aylasin Avazday oʻgʻlon,
Yoʻllarimni ochsa qudratli mavlon,
Tavakkal yoʻliga tushdim, ogʻalar,
Omin denglar, Xoldor ogʻa, Hasanxon.

Bir nafas dam olib yotali boʻldim,
Bogʻu choʻlni kesib oʻtali boʻldim,
Omon boʻlgin yana qaytib kelguncha,
Koʻhi Qof yurtiga ketali boʻldim.

Koʻrmagan ellarni koʻrmali boʻldim,
Chambilday joylarda turmali boʻldim,
Omon boʻlgin yana qaytib kelguncha,
Koʻhi Qof yurtiga bormali boʻldim.

¹ Tayanib.

² Uygʻonib.

³ Uvoli.

Men ketgan so'ng uydan chiqib o'tirma,
Har nuchuk nomardga siring bildirma,
Do'stim g'amgin, dushmanimni kuldirma,
Omon bo'lgin, Gulqiz, ketmali bo'ldim.

Bog'da ochilgan lola, gullar so'lmasin,
Oqqan suvlar oqib loyqa bo'lmasin,
Dushmanlar jonlanib tag'i kulmasin,
Omon bo'lgin, Gulqiz, ketmali bo'ldim.

G'amginliging har nokasga bildirma,
G'iybatchilar og'zin gapga to'ldirma,

Avaz o'g'lon Gulqizoyini yig'latib, yurak-bag'rin dog'latib, anjom-aslahasini olib po-yu piyoda Chambilning ko'chasi bilan yurib, shahar darvozasiga qarab keta berdi. Shunda Gulqizoy zor-zor yig'lab, Avaz o'g'lonning orqasidan duo qilib, bir so'z dedi:

Bo'lar o'xshar menga oxir zamona,
Yorim ketar, qaytmoqligi gumon-a,
Hasrat bilan qolar bo'ldim Chambilda,
Iloyim bo'lsin-da eson-omon-a.

Sozga monand so'zlar kelar ayqashib,
Qayda bo'lsa do'stlar yursin joyqashib,
Yorim ketar bo'ldi tog'lardan oshib,
Iloyim bo'lsin-da, eson-omon-a.

Og'u qo'shilmasin ichgan oshlarga,
G'am-alam yetmasin aziz boshlarga,
Yorim ketar bo'ldi tog'-u toshlarga,
Iloyim bo'lsin-da eson-omon-a.

Gulqizoy ming hasrat-u alamda Nuralini orqalab, zor-zor yig'lab qola berdi. Avaz o'g'lon shu yur-ganicha Chambil darvozasidan chiqib, po-yu piyoda tavakkal, deb Badbaxt tog'iga qarab, ko'p azob-u mashaqqatlar chekib keta berdi.

Shuytib, Avaz o'g'lon yo'l yurib, ozgina emas, mo'l yurib, oyoqlari qabarib, sakkiz kun yo'l yurib, Badbaxt tog'iga yetib borib, Badbaxt tog'ining betiga tarmashib chiqib bora berdi. Avaz o'g'lon chiqayot-gan joyda yo'l yo'q, juda ham tikka, shunday uch qat so'z'. Qora bodom, do'lona, yovvoyi olmurid va boshqa-boshqa turli-tuman, daraxtga kon bet edi. Shu betning tikkasiga qarab Avaz o'g'lon pishnab, enti-kib borayotsa, balanddan meshday tumalov, oyoqlari tarvaqay, lekin timoqlari o'roqday o'tkir, quloqlari supraday, badanida bitta ham juni yo'q, bir badbashara maxluq ko'zi olovday yonib, daraxtlarni pachirlatib paymol qilib, sindirib, shamoliga pita va toshlar uchib, pashillab enib kelayptiki, hech qo'ying. Shunda Avaz o'g'lon ko'nglida: "Nima bo'lsa ham bu maxluqqa sir bermay, bir savol so'rab ko'rayin", — deb sipohilikni qo'ldan bermay, ul maxluqqa qarab, mo'ylabini burab, undan savol so'rab, bir so'z dedi:

Ko'p kun bo'ldi bu tog'larda kezaman,
Olishsam, har qanday zo'rdan o'zaman,
Toshdan devor yasab qo'rg'on tuzaman,
Sen ayt-chi, ey, maxluq, qaydan kelasan?

Yoki turar joying chuqur darami,
Bu tog'da sendaylar kezib yurami,

Shunday qilib dushmanlarni kuldirma,
Omon bo'lgin, Gulqiz, ketmali bo'ldim.

Men ketgan so'ng Nuralini yig'latma,
Ko'nglin buzib bag'ri-dilin dog'latma,
Shuytib yuragida yonchiq saqlatma,
Omon bo'lgin, Gulqiz, ketmali bo'ldim.

Ko'hi Qofga yetib bormoq gumondir,
Yo'llari xatardan xatar, yomondir,
Tavakkal aylagan Avaz o'g'londir,
Omon bo'lgin, Gulqiz, ketmali bo'ldim.

Suqsur qo'nar uchib ko'ldan ko'llarga,
Turna parvoz urib tushar yo'llarga,
Yorim ketar bo'ldi dashti cho'llarga,
Iloyim bo'lsin-da eson-omon-a.

Tongda bulbul sano olar tillarga,
Sayragani yoqar har bir dillarga,
Yorim ketar chiqib necha bellarga,
Iloyim bo'lsin-da eson-omon-a.

Osmonga uchibdi Chambil davlati,
Kam bo'lmasin dildorimning shavkati,
Yori ketib, ko'paydi Gulqiz hasrati,
Ilohim bo'lsin-da eson-omon-a.

Mendaylar hech pilla yonin berami,
Supraquloq maxluq, qaydan kelasan?

Bayon ayla menga kasbi-koringni,
Bo'lmasa, ko'rsatgin bunda zo'ringni,
Quritib tashlayman sening sho'ringni,
Bahaybat, besiyoy, qaydan kelasan?

¹ So'z, so'y, so' — tomon.

Pitalarni ishirasan damingga,
Chuqurlashib qushlar borar komingga,
Ellik botmon tosh bog'labsan dumingga,
Jonlarga ofat bo'p qaydan kelasan?

Shunda ul maxluq to'xtab, Avaz o'g'longa qarab, bir so'z dedi:

G'ayratim kelganda, toshib-to'laman,
Aslim so'rsang, Ko'hi Qofdan kelaman,
Go'ro'g'li degani yo'ldan ozibdi,
Chambilga atalgan Balo bo'laman.

Bir nafasda Chambilbelni yondirib,
Devorlarin ust-ustiga do'ndirib,
Turkmanga yo'llangan Balo bo'laman,
Yurti yanchib ketay, ko'nglim tindirib.

Zo'rligimni bu ellarga ko'rsatib,
Zarb bilan Badbaxt Balqonga qorib,

Shunda Avaz o'g'lon Baloman degan maxluqqa qarab: "Sen turkmanga kelgan Balo bo'lsang, men baloni qaytaradigan, balki baloni bosib yeydigan Balogardonman", — deb do'qlab, shu so'zni aytdi:

G'ayratim mavj urib, toshib-to'laman,
Qayda balo bo'lsa ko'zin olaman,
Balo yegich Balogardon bo'laman,
Sendaylarni bunda izlab kelaman.

Tangrining bor yetmish ikki balosi,
Birin tirik qo'ysam, ko'nglim qolasi,
Duch kelgan baloning qotar silasi,
Men shundayin Balogardon bo'laman.

Yetmish bir baloni yedim, tugatdim,
Kuning bitgan ekan senga ham yetdim,

Bu so'zni Avaz o'g'londan Balo eshitib, qaltirab, haddili qo'rqib ketib: "Jon Balogardon, menga rahming kelsin, nima desang, aytganingni qilib yurayin", — deb zor-zor yig'lab, Avaz o'g'longa qarab, shunda Balogardonga Balo elanib, bir so'z dedi:

Jon xo'jayin, har na desang qilayin,
Kecha-kunduz xizimatingda bo'layin,
Go'sht desang, devlardan tutib kelayin,
Balogardon, rahm aylagin holimga.

Borma desang, turkman elga bormayin,
Chambilini sira-sira ko'rmayin,
Badbaxt tog'da turma desang, turmayin,
Balogardon, rahm aylagin holimga.

Qayt desang, Ko'hi Qofga qaytib ketayin,
To'rt yuz to'qson tog'dan haklab o'tayin,

Avaz o'g'lon Baloning o'zidan qo'rqib qolganini bilib: "Bo'lmasa, meni ko'tarib, Ko'hi Qofga eltib qo'y. U yoqlarda o'zim devlarni ovlab yeb yuraman. Senga Ko'hi Qofga borganingdan keyin javob bera-

Bir azim cho'qqiga mengzar haykaring,
Olishmoqqa bormi bunda oharing,
Qayerda yashagan yurting, shaharing,
Og'zing ochib bunda qaydan kelasan?

Chambilga yo'llangan Balo bo'laman,
Turkman elni ketmoqchiman ag'darib.

Bir nafasda tog'-u toshni eritib,
Bir ho'plam qip Hazar suvin quritib,
Turkmanga yo'llangan balo bo'laman,
Ketmoqchiman bor narsasin chiritib.

Chambilda ozibdi Go'ro'g'li sulton,
Shuytib ellarini qilurman vayron,
Endi sendan so'ray, ey, tog'da yurgan,
Jinmisan, devmisan va yo bir inson?

Hozir bo'l, bachchag'ar, xalqingdan tutdim,
Men shundayin Balogardon bo'laman.

O'zingga bu yerda o'tin yig'dirib,
Go'shtingni o'choqqa qo'ldan tiqtirib,
Bir yeb olay xo'b pishirib, biqtirib,
Men shundayin Balogardon bo'laman.

Bilmasang, hamzamon meni bilarsan,
Andaygina menga taslim bo'larsan,
Yaxshi kepsan, shoshmay tursang o'larsan,
Men shundayin Balogardon bo'laman.

Buyur, kimni desang, halok etayin,
Balogardon, rahm aylagin holimga.

Bu tog'da bemahal kunim bitmasin,
Umrin bunyodiga ham zil ketmasin,
Tabarruk qo'lingdan ziyon yetmasin,
Balogardon, rahm aylagin holimga.

Ilgingga topshirdim taqdir azalim,
Bu tog'da yetmasin bevaqt ajalim,
Sensan Mirzom, begim, sensan go'zalim,
Balogardon, rahm aylagin holimga.

man”, — deb Baloga tinggilib, o‘dag‘aylab turdi. Shunda Balo Avaz o‘g‘longa elanib: “Mayli, men xizmatiga hozirman. Lekin yo‘lda bir tog‘ning ustida To‘xtamish ko‘r degan bir zo‘r bor. Men har o‘tganimda ushlab qolaman, deb qo‘lini bir cho‘zib qoladi. Sen ham o‘sha yerga yetganda, qanotimning orasiga siqilinqirab o‘tirgaysan”, — deb Balo yerga japs bo‘lib, Avaz o‘g‘lonni orqasiga mindirib, falakka parvoz qilib uchib ketdi. Aylanib uchib Chingiston tog‘ida o‘tirgan To‘xtamish ko‘rning ustiga yetdi. Shunda Balo Avaz o‘g‘longa qarab, bir so‘z deb borayotir:

Tuman tushgan qirra tog‘lar pastiga,
Bir nechalar xanjar olib dastiga,
Qimtinib mahkam bo‘l, endi xo‘jayin,
Yangi keldik To‘xtamish ko‘r ustiga.

Bachchag‘ar o‘ltirar Balo qasdiga,
U bir zolim, vafo qilmas do‘stiga,
Qimtinib mahkam bo‘l, endi xo‘jayin,
Yangi keldik To‘xtamish ko‘r ustiga.

To‘xtamish haddili zolim bo‘ladi,
Qasd etgan kimsaning jonin oladi,
O‘tganimda qo‘lin cho‘zib qoladi,
Qimtinib mahkam bo‘l, endi xo‘jayin,
Yangi keldik To‘xtamish ko‘r ustiga.

To‘xtamish ko‘r Baloning turkman tomoniga uchib o‘tib ketganini bilib, Baloning qaytishini kuzatib o‘tirgan edi. To‘xtamish ko‘r Baloni ushlab qolaman, deb qo‘lini bir sermab, tutolmay qoldi. Balo ham To‘xtamish ko‘rdan qo‘rqanidan balandga qattiq cho‘pchib, xuddi oy shavillab o‘tib ketdi, uch yuz yillik yo‘lni uch soatda olib, Ko‘hi Qof yurtining bergi chekkasiga yetdi. Shunda Balo atdi: “Bizlarning makonimiz Ko‘hi Qofning buzuq qayrag‘ochzor, jangalzor, yulg‘unzorlarining orasida bo‘ladi. Ko‘hi Qof mamlakatlarida adolat o‘rnatilgan. Qayerdagi adolat bo‘lsa, balolar u yerlarga borolmaydi. Qayerdagi zulm, insofsizlik, g‘iybat, vo‘shak ko‘p bo‘lsa, balolar o‘sha yoqqa yo‘llanadi. Chambilda zulm va vo‘shak ko‘p bo‘lib, podshosi Go‘ro‘g‘li yo‘ldan chiqayozgan bo‘lgani bilan birniki mingga, mingniki tumanga deganday Avaz o‘g‘lon deganining sharofati urib, sen Balogardon menga duch kelib, yana meni bu yoqlarga qaytargansan. Anov ko‘rinib, turgan yurt — Ko‘hi Qof yurti. Endi menga oqko‘ngil bilan javob bersang, haqingga duo qilib ketsam”, — dedi. Avaz o‘g‘lon ichida: “Ketsang, go‘r ket”, — deb Baloga javob berib yuborib, o‘zi yolg‘iz qolib, o‘sha yerda bir tog‘simon qirlikni ko‘rib, tavakkal aylab, o‘sha qirlikka chiqsa, bu yog‘i poyonsiz dengiz, naryog‘i dasht, dashtning naryog‘ida Ko‘hi Qof yurti borligi ko‘rinib turibdi. Yaxday oppoq suvli kichkina bir buloq oqib, dengizga quyulib borayotir. Avaz o‘g‘lon buloqda yuvinib, suvidan serob bo‘lib ichib, ehtiyoti shart, deb mehtarasini ham to‘ldirib olib, nari yoqqa qarab ravona bo‘ldi.

Suv bo‘ynida yashovchi bir yovvoyi ho‘kiz ajali yetib o‘lgan edi. Avaz o‘g‘lon: “Buyumni bekerak vaqtida yig‘ degan. Bul ham bir kerak bo‘lib qolar”, — deb yovvoyi ho‘kizning dumini qirqib olib, qo‘yniga solib keta berdi. Qarasa, nariroqda bir qurbaqa yurgan ekan. “Bul ham kerak bo‘lar”, — deb qurbaqani ham qo‘yniga solib keta berdi. Dashtda bir toshbaqa topib olib, toshbaqani ham qo‘yniga solib keta berdi. Shunday qilib, Avaz o‘g‘lon ko‘p azob-u uqubatlar bilan o‘rtalikdagi dashtni kesib o‘tib, bir ko‘ndalang tosh devorga yetdi. Bu tosh devor Ko‘hi Qof yurtining chegarasi edi. Avaz o‘g‘lon qarasa, ko‘ndalang devorning bir joyida og‘zi bor ekan. Devorning og‘zini katta, bahaybat bir dev qo‘riqlab turgan ekan. Avaz o‘g‘lon tavakkal qilib devning oldiga borib, nari yoqqa o‘tkazib yuborishni so‘rasa, dev Avaz o‘g‘longa qarab, avval kimligingni tanit, — deb shu so‘zni aytdi:

Ko‘hi Qofda ko‘pdir turli toifa,
Bayon ayla, qaysisidan bo‘lasan,
Sendayini ko‘rmab edim dunyoda,
Aslingni ayt, qay kamardan bo‘lasan?

Tashvishimni sen aylama ziyoda,
Qaydan kelding bunda poyu piyoda,

Shu yerda falakka kechmasam bo‘lmas,
Osmon ko‘kragini quchmasam bo‘lmas,
Bir cho‘chib balandroq uchmasam bo‘lmas,
Qimtinib mahkam bo‘l, endi xo‘jayin,
Yangi keldik To‘xtamish ko‘r ustiga.

Avaz ham Baloning yolin ushladi,
Oyog‘in pastidan chirmab tashladi,
To‘xtamish ko‘r changalidan qo‘rqqandan,
Balo ham balandga cho‘pchiy boshladi.

Shuytib, Balo ko‘p to‘lg‘onib tuvladi,
Tubsiz osmon uzra bulut qavladi,
Yashindan ham tez bo‘p cheksiz samoda,
Oy oqqanday bo‘lib, hayhot, shavladi.

Sendayini ko‘rmab edim dunyoda,
Aslingni ayt, qay kamardan bo‘lasan?

Yuzlaring qip-qizil misoli, olma,
Bo‘yginang bir qarich, belginang tolma,
Tashvish berma menga, yo‘lingdan qolma,
Aslingni ayt, qay kamardan bo‘lasan?

Ko'hi Qof xo'blari bu yoqqa chiqmas,
Ba'zi devlar kelsa yo'lakka sig'mas,
O'mimdan turgali menga xush yoqmas,
Aslingni ayt, qay kamardan bo'lasan?

Tarzingga qarasam, murrrik chapchasan,
Qo'llaring mayshaygan qayqi cho'pchasan,
Tag'i mardanglagan bori gapchasan,
Aslingni ayt, qay kamardan bo'lasan?

Avaz o'g'lon devning erinib aytgan so'zlarini eshitib, so'rog'iga monand qilib, qorovul devga qarab, mo'ylabini bo'rab, bir so'z dedi:

Gohlarda daryoday toshib-to'laman,
Bu yerlarga balo izlab kelaman,
Bilsang bil, bilmasang, eshit so'zimni,
Balogardon kamaridan bo'laman.

Baloni topmasam, devdan tutaman,
Tanasin lo'nda qip cho'qqa qotaman,
Vajillatib shuytib kabob etaman,
Balogardon kamaridan bo'laman.

Mendan qutulolmas ajdar yiloni,
Bu so'zimning yo'qdir bargiz yaloni,
Qayda ko'rsam, tutib yeyman baloni,
Balogardon kamaridan bo'laman.

Hadding bilib, darrov menga yo'l bergin,
Adab saqlab, bunda xizmatda turgin,
Bo'lmasa, tez iymoningni o'girgin,
Balogardon kamaridan bo'laman.

Shunda Avaz o'g'lon: "Men Balogardon kamaridan bo'laman. Agar balo topmasam, dev go'shtiga qanoat qilib yuraman. Sen bo'lsang, menga yo'l bermay, achchig'imni keltirding. Endi ajaling yetgan ekan, tez taslim bo'lib, iymoningni o'gir", — deb devga do'q ura berdi. Qorovul dev ko'nglida: "Jasadiga qarasam, bu o'zi anchayin. Shunda ham kishi bilib bo'lmaydi. Ishqilib, ehtiyot yaxshi. Buni avval bir sinab ko'ray. Agar chindaki Balogardon bo'lsa, elanib yolvoray va agar Balogardon bo'lmasa, buni ikki yamlab, bir yutib qo'yay", — deb o'ylab, Avaz o'g'longa qarab: "Menga podshohimizning bergan buyrug'i shulki, kimki shu ko'ndalang devorning og'ziga kelsa, mening bilan garov o'ynaydi. Agar yutsa, aytgan gaplari rost bo'ladi, yutolmasa, yolg'onchi, deb hisoblanadi", — dedi. Avaz o'g'lon: "Mayli, nima garoving bo'lsa, o'ynay beramiz", — deb sipohilikni qo'ldan bermay turdi.

Shunda dev: "Garovimiz burga urishtirishdan bo'lsin", — deb junining orasidan bitta burgasini chiqardi. Avaz o'g'lon ham qo'yniga qo'lini suqib, qurbaqani chiqarib, devning burgasiga qaratib qo'yib yuborgan edi, qurbaqa darrov yalpillab, devning burgasini tappa bosib qoldi. Dev: "Endi bit urishtirari qilamiz", — deb qo'ltig'idan bitta bit topib yerga qo'ydi. Avaz o'g'lon ham qo'ynidan toshbaqani chiqarib, devning bitiga to'g'rilab qo'yib yubordi. Toshbaqa hademay devning bitini bosib qoldi. Dev qo'ltig'idan yo'g'onligi chilvirday bir dona qil yulib olib: "Endi qo'ltig'imizning junini urishtirari qilamiz. Qani, sen ham qo'ltig'ingning junidan bitta qil ol", — deb qarab turdi. Avaz o'g'lon qo'yniga qo'lini suqib, yovvoyi ho'kizning dumini chiqarib, devning qo'ltig'ining juni bilan urishtirib, tortgandan dev qo'ltig'ining juni uzilib ketdi.

Shunda qorovul dev: "Nima balo, ajalim yetganligi uchun bu Balogardon ko'zimga kichkina ko'rinayaptimi?" — deb Avaz o'g'londan qattiq qo'rqib qolib, Avaz o'g'longa xushomad qilib, elanib, bir so'z dedi:

Xato qildim, Balogardon,
Boshing haqi, o'tgin endi,
Javrab yurgan o'zim nodon,
Gunohimdan o'tgin endi.

Bir men bilan dev ozaymas,
Ko'p oriqlan, qorning to'ymas,
Bu dev doim xizmatlarda,
Aytgin so'zing yerda qolmas,
Gunohimdan o'tgin endi.

Bajo etay xizmatini,
Endi saqlay hurmatini,
Buncha kuchu g'ayratingni,
Bilolmabman, o'tgin endi.

Daryolarning suvi shavlar,
Tirik jonni ajal qavlar,
Arzim eshit, Balogardon,
Esang ko'pdir g'abon devlar,
Gunohimdan o'tgin endi.

Ko'hi Qofning boshi baland,
Otgan bilan yetmas kamon(d),
Qurbon bo'lsam arzirdi-ku,

Attang oriqlan, kasalmand,
Gunohimdan o'tgin endi.

Shunda Avaz o'g'lon qorovul devning juda ham qo'rqib, elanayotganini bilib: "Hay mayli, o'zing ham juda oriq, kichkinagina dev ekansan. Bo'lmasa, menga o'sha semiz, g'abon devlarning yo'lini ko'rsat. Sening o'ringga ham o'sha g'abon devlarning bittasini yerman", — dedi. Shunda qorovul dev qaltirab: "Mana, bu yoqqa o'tsangiz, taqsir. Dev deysizmi, pari deysizmi? Koni bor", — deb yo'l bo'shatib turdi. Shuytib, Avaz o'g'lon qorovul devning oldidan oson o'tib olib:

"Endi toza dev-u parilarning yo'lini aniqlab ber", — deb qorovul devga qarab, mo'ylabini burab, bir so'z dedi:

O'tar dunyo, kelasini o'ylagin,
Til borinda turfa-turfa so'ylagin,
Tushay endi dev-parilar qasdigaga,
Alarning yo'lini bayon aylagin.

Kelganman qip g'abon devlar qasдини,
Shungacha ko'p kezib osmon ostini,
Bilmayman bu yog'in baland-pastini,
Bildirgin yo'llarin, aytib rostini.

Devlarning boshini to'g'ishtirayin,
Qirib-jo'yib jazosini berayin,

Shunda qorovul dev Avaz o'g'longa yo'l ko'rsatib, bir so'z dedi:

Shu tekis maydondan nari bir soy bor,
Soy bo'yida turar yalmog'iz xunxor,
Bu yoqdan borganni yemakka tayyor,
Duch kelgan kishini nobud qiladi.

Undan omon o'tgan chiqar chorboqqa,
Falokat qismagan borar u yoqqa,
Parizodlar chiqar sayr etib boqqa,
Ko'rganlarning aqli hayron bo'ladi.

Chorbog' o'rtasida shisha hovuz bor,
Shisha hovuziga parilar kelar,

To'g'ri yo'lin ko'rsat menga rostdan,
Qornim och, tezroq anda borayin.

Bir nechasin quloq, ko'zin o'yayin,
Nechovin xodaga ilib qo'yayin,
Tezroq yo'lin ko'rsat, darhol borayin,
Qornim och, bir semizin yeb to'yayin.

Yo'l ko'rsatgin, o'zing bo'lib xizmatkor,
Dev-pari, barchasin aylay tor-u mor,
Darhol ko'rsat yo'lin, anda yetayin,
Ochman, deb go'shtiga bo'p keldim xushtor.

Toq tushda yechinib bari cho'milar,
Angnigan barini ko'rib oladi.

Kimki hovuz tagin teshik aylasa,
Kirib shu teshikning yo'lin boylasa,
Suv chiqmasday qilib tiqib taylasi,
Parizodlar oson tutilib qoladi.

Bo'lmasa parini, devni izlabon,
Topolmay bo'ladi kishi ko'p sarson,
So'zimning rosti shul, ey, Balogardon,
Men aytgan joylarman agarda borsang,
Dev-u parilarni toparsan oson.

Shuytib, Avaz o'g'lon qorovul devning ko'rsatgan yog'iga qarab ketdi, tekis maydondan o'tib, soylikka yetdi. Borsa, bir yalmog'iz kampir qirq quloqli qozonga ko'p zig'irmoy solayapti. Yalmog'iz kampir Avaz o'g'lonni ko'rib: "Kel, aylanay, Avazxon, sening qadd-u qomatingga momong bo'lsin qurbon; Avaz o'g'lon enasini izlab keladi, yo'lda menga mehmon bo'ladi. Shu Avazxon chiroqqinamni mehmon qilib, boplab bir za'faroni palov qilib beray, deb moy chuchutmoqchi bo'layotgan edim. Vaqtida kelding. Mana bu supaga chiqib o'tir", — dey berdi. Aslida bu yalmog'iz kampir juda romchi qurg'ur bo'lib, shu bugun Avaz o'g'lon shu yerdan o'tishini romda ko'rib, o'xshatib bir qovurib yeb olay, deb moy chuchutayotgan edi. Avaz o'g'lon: "Bu kampirning avzoyi boshqachaga o'xshaydi", — deb yalmog'iz kampirga qarab: "Momo, Chambilning yigitlari qarigan kampirlarni duo qilib, boshqatdan qiz qilib oladi. Agar siz mayli desangiz, men ham sizni duo qilib, boshqatdan qiz qilib olsam, bo'ladimi?" — dedi. Kuyov desa, yetmish-

ga kirgan kampirning ham ko'ngli qimirlab ketadi, deganday yalmog'iz kampir ham Avaz o'g'lonning bu so'ziga qiziqib qoldi. Nima deganda, yalmog'iz kampir ba'zi parilarning Iram boqqa borib, u yerning mevasidan yeb, hech qarimay yurishini, undan keyin juda ham donishmand tabib bo'lsa, kishini hech qarimay, qaytadan yosh qila berishini bilib, "Shu Iram boqqa-ku borolmayman, shu bir donishmand tabibga tegib, yosharib, hech qarimay, davron surib yursam", — deb o'ylab yurar edi. Ana endi murodiga yetsa ham ajab emas. Yalmog'iz kampir: "Agar Avaz o'g'lonning bu so'zlari yolg'on bo'lganda ham, yutdirmayman. Baribir bu bola mendan hech yoqqa qochib ketolmaydi", — deb Avaz o'g'longa: "Bo'lmasa, mayli, duosini qilib, meni qiz qilib olag'oy, qiz bo'lib senday yigitga teksam, nima armonim bor?!" — dedi. Avaz o'g'lon: "Bo'lmasa, siz shu qozonni aylana bering, men orqangizdan sizni qiz qiladigan duosini o'qib aylana beraman", — dedi. Yalmog'iz kampir ko'nib, moyini chuchitib, qo'lida kapkiri qozonni aylana berdi. Avaz o'g'lon yalmog'iz kampirning ber yog'idan duosini o'qib aylana berdi:

— Momo qiz bo'lsin, qiz bo'lsin,
Raso yetishgan qiz bo'lsin,
Tag'i noraso bo'lib,
Dardlanib og'rib qolmasin,
Momom qiz bo'lsin, qiz bo'lsin!

— Jon bolam, aytganing kelsin!

— Yuzi to'lgan oyday bo'lsin,
Qo'sha qoshi yoyday bo'lsin,
Qad-qomati nayday bo'lsin,
Momom qiz bo'lsin, qiz bo'lsin!

— Jon bolam, aytganing kelsin!

— Shuytib, oyday to'lgan bo'lsin,
Miyig'ida kulgan bo'lsin,
Qabog'i ochilgan bo'lsin,
Hilpillab yetilgan bo'lsin,
Momom qiz bo'lsin, qiz bo'lsin!

— Jon bolam, aytganing kelsin!

— Yengillanib qushday bo'lsin,
Kelbati behishtday bo'lsin,
Salqi emas, toshday bo'lsin,
Momom qiz bo'lsin, qiz bo'lsin!

— Jon bolam, aytganing kelsin!

— Badani to'ladan bo'lsin,
Semizcha g'o'ladan bo'lsin,
Osgani tilladan bo'lsin,

Ko'ylagi hilladan bo'lsin,
Momom qiz bo'lsin, qiz bo'lsin!

— Jon bolam, aytganing kelsin!

— Jamoli olmaday bo'lsin,
Belchasi tolmaday bo'lsin,
Qissa uzulmayday bo'lsin,
Momom qiz bo'lsin, qiz bo'lsin!

— Jon bolam, aytganing kelsin!

— Sochlari uzundan bo'lsin,
Yarqillashi kundan bo'lsin,
Siyo zulfi tundan bo'lsin,
Ertanmas bugundan bo'lsin,
Momom qiz bo'lsin, qiz bo'lsin!

— Jon bolam, aytganing kelsin!

— Lorsillagan loabar bo'lsin,
Qo'li ishchan chebar bo'lsin,
Har doim pul tabar bo'lsin,
Tekkan erin o'par bo'lsin,
Momom qiz bo'lsin, qiz bo'lsin!

— Jon bolam, aytganing kelsin!

— Boshdan oyoq suluv bo'lsin,
Uchrashuvi yiluv bo'lsin,
Avazxonga soluv bo'lsin,
Momom qiz bo'lsin, qiz bo'lsin!

— Jon bolam, aytganing kelsin!

Shuytib, o'choqni aylana berib, Avaz o'g'lon qulayiga keltirib, yalmog'iz kampirni qozondagi moyga oyog'idan ko'tarib itarib yubordi. Yalmog'iz kampir qozonda qovrilib, jinjagi chiqib kuyib, halok bo'lib qola berdi.

Avaz o'g'lon yalmog'iz kampirdan qutulib, nari yoqqa o'tib, chorboqqa yetib, shisha hovuzning bergi yog'idan xanjari bilan kovlab, yerning osti bilan teshib, shisha hovuzning tagidan chiqib, sipohida har qan-



day asbob mavjud-da, darrov yonidan olmos olib, shishaning odam siqquday joyini qirqib, avaylab hovuzga o'tib, qirqilgan shishani yana joyiga qo'yib, mum bilan berkitib, suvga pishinib, parilarning kelib hovuzga cho'milishini kutib turdi. Kun ham tush bo'lib, qirq kanizi bilan, jodu ko'zi bilan Oqil pari kelib, bari parilar shisha hovuzning labiga kiyimlarini yechib, yalang'och bo'lib, hovuzga tushib cho'mila berdi. Avaz o'g'lon qarasa, Oqil pari juda sho'x qiz ekan. Qulaylab borib, o'sha Oqil parining sochidan mahkam ushlab qoldi. Shunda Oqil pari kanizaklariga qarab, qochinglar, odam bor ekan, — deb shu so'zni aytdi:

Qochinglar, odam bor ekan,
Darrov-darrov qirqin qizlar,
Mahkam ushladi bittasi,
G'afolatda qolibmiz bizlar.

Eshiting, barcha kanizlar,
Baring birday jodu ko'zlar,
Bilmay qopmiz, sarvinozlar,
Darrov-darrov qoching, qizlar.

Biri kelib meni tutmish,
Yo bilmam boshima yetmish,
Qo'llarim madori ketmish,
Darrov-darrov qoching, qizlar.

Qurib ketsin suv o'yini,
Keladi odamzod uni,

Yo bir tuman turti meni,
Darrov-darrov qoching, qizlar.

Tag'i sizni ham tutmasin,
Sudrashib olib ketmasin,
Barimizni yer yutmasin,
Darrov-darrov qoching, qizlar.

Ushlab turgan joyi qaqshar,
Yo bo'ldimi ro'zi mahshar,
Suv ostida ko'pga o'xshar,
Darrov-darrov qoching, qizlar.

Tuman turtgandir bizlari,
Og'ir ko'rinar haykari,
Bandi bo'ldi Oqil pari,
Darrov-darrov qoching, qizlar!

Oqil parining qiyqirig'i bilan barcha kanizlar obil-g'ubil shisha hovuzdan chiqishib, kiyimlarini kiya solib, chorbog'ni oralab, har qaysilari har yoqqa qochib ketdilar. Bu yoqda Oqil pari odamzoddan sitilib-qutulib ketolmasligini bilib, Avaz o'g'longa qarab, odamzod meni qo'yib yubor, — deb shu so'zni aytdi:

Avlodingga ziyon yetar,
Qo'y, odamzod, qo'ygin endi,
Balki ajaling yetar,
Qo'y, odamzod, qo'ygin endi.

Qoning suv bilan qorilar,
Boshing taningdan arilar,
Parining emchagin ko'rib,
Hozir yuraging yorilar,
Qo'y, odamzod, qo'ygin endi.

Manzilgohim tog'dan nari,
Badanimning bor zahari,
Asli o'zim sardor pari,
Qo'y, odamzod, qo'ygin endi.

Joning chiqar, tushsa ko'zim,
Bir Oqil pariman o'zim,
Siying borda tort qo'lingni,
Ey, odamzod, qat'iy so'zim,
Qo'y, odamzod, qo'ygin endi.

Avaz o'g'lon Chambilda "Parining emchagini ko'rsa, odamning yuragi yorilib o'ladi", "Parining badani zahar bo'ladi", "Pari birovga tingilsa, tirik qo'ymaydi" degan gaplar yolg'on ekanini Og'a Yunus paridan eshitgan edi. Shuytib, Avaz o'g'lon Oqil parining bunday talvasa do'g'idan qo'rqmay, sochi bilan qo'lini qo'yib yubormay, qaytama mahkamroq qilib qisib tura berdi. Oqil pari ham bu odamzod juda mahkam irodali ekanini bilib, sitilib qutulishning harakatiga tushib, tuvlab, tortinib, uyat-puyat bilan ham ishi bo'lmay, tirday yalang'och, hovuzning labiga zo'rg'a sudralib chiqdi. Avaz o'g'lon ham usti-boshi ho'l bo'lgani holda Oqil parining bir qo'li bilan sochidan, bir qo'li bilan bilagidan ushlab, bul ham sudralib shisha hovuzning labiga chiqdi. Shunda Oqil pari Avaz o'g'lonni boshdan oyoq ko'rib, birdan xushtor bo'lib qolib, tuvlamay muloyimlashib, Avaz o'g'longa qarab, marg'ulini tarab, zulfini burab, bir so'z dedi:

Kim bo'lsang ham suvdan kelgan, odamzod,
Men o'rgilay bunda qaddi-bo'yingdan,

Seni mehmon aylay, meni qil ozod,
Men o'rgilay bunda qaddi-bo'yingdan.

Xabarim yo‘q ko‘nglingdagi o‘yingdan,
Bahra olsam bahor kabi ro‘yingdan,
Yursam yarashmaymi, jonim, ko‘yingdan,
Men o‘rgilay bunda qaddi-bo‘yingdan.

Chiqqim kelmas ixtiyori rayingdan,
Tilab olsam seni ko‘ngil-hoyingdan,
Tavof aylab har kun qadam joyingdan,
Men o‘rgilay bunda qaddi-bo‘yingdan.

Dol bo‘ying ekandir menga munosib,
Ergashay izingga izlaring bosib,
Men o‘rgilay bunda qaddi-bo‘yingdan,
Har zamon qo‘limni ilgingga osib,

G‘animatlar bilib shundayin damni,
Ko‘zlarim ustiga qo‘ygin qadamni,
Endi ko‘rdim o‘zim turqi odamni,
Men o‘rgilay bunda qaddi-bo‘yingdan.

Xonamga mehmon bo‘p, jonim, ko‘nglim ol,
Ko‘nglim olib, o‘zim aylagin xushhol,
Xushhol et, bo‘lmayin ishqingda behol,
Men o‘rgilay bunda qaddi-bo‘yingdan.

Murodu maqsadim aylagin hosil,
Shul kecha bo‘layin vaslingga vosil,
Ishqingda o‘rtanib yonmasin Oqil,
Men o‘rgilay bunda qaddi-bo‘yingdan.

Avaz o‘g‘lon Oqil parining bu so‘zini eshitib, Oqil parining o‘ziga xushtor bo‘lib qolganini bilib, qo‘lini qo‘yib yubordi. Oqil pari darrov shisha hovuzning labida yotgan kiyimlarini kiyib olib, noz-u karashma bilan qayrilib, Avaz o‘g‘longa salom berib turdi.

Avaz o‘g‘lon Oqil parining qaddi-bastiga shunday qarasa, qaddi raso, husni zebo, sarg‘ichnamo, qalam qosh, qattiq badan, suyri burun, yuzi so‘lpitob — ishqilib juda ham kelishgan, usti-boshi o‘ziga yarashgan bir parizod ekanki, hech qo‘ying! “Obbo, ilgari Sarvinozning qo‘lidan murosa qilib qutulgan edim. Endi bunisi nimasi bo‘ldi? Buning noz-u karashmasi odamning jon-jonidan o‘tib ketdi-ku! O‘zi ham toza suluvning suluvi ckan-da! Oygulqizlar buning oldida to‘yga borolmaydi. Hali-ku men mavqi bosilmagan bir yigitman, hatto farishtani yo‘lidan qoldirar. Tovba, meni Ko‘hi Qofga shu parining havasi tortib keldimikan?!” — deb o‘ylanib qolganida, Oqil pari Avaz o‘g‘lonni chaqqonlik bilan qo‘ltiqlab, o‘z hujrasiga qarab olib ketdi. Yo‘lda Avaz o‘g‘lon hech aql-u hushini tutolmay, nima bo‘lganini bilmay bordi. Oqil pari harir ko‘ylakka o‘ralib, ipakday buralib, tovusday taralib, ming izzat-u ikrom bilan Avaz o‘g‘lonning ikki yog‘iga yostiq qo‘yib, turluk noz-u ne‘matlar bilan mehmon qila berdi.

Avaz o‘g‘lon yana ko‘nglida: “Bu parining xulqi-atvori qanday ajoyib. Gulqizda bunday xislatlar bormidi?” — deb o‘ylanib, g‘alati xayollarga botib tursa, Gulqizoy Nuralini ko‘tarib turgan bo‘lib, ko‘zlarini jovdiratib, birdan Avaz o‘g‘lonning ko‘ziga ko‘rinib ketib, mehr to‘la ko‘zlarini qattiq tingiltirib yubordiki, aka, Oqil pari tugul yer yuzida qancha suluv parilar bo‘lsa, bari bir tiyanga arzimay ketdi. Avaz o‘g‘lon hushini yig‘ib, o‘ziga kelib qarasa, pok bo‘lmasa, ham yori, ham farzandidan kechib, ovora bo‘lib qoladigan bo‘lgan ckan. Shunda Avaz o‘g‘lon o‘ziga-o‘zi nasihat qilib, bir so‘z dedi:

Erima, ko‘nglim erima,
Har nechuk qush parvozigga,
Burilib qayri yurima
Har bir sanamning noziga.

Xizmat aylar diling xushlab,
Ko‘zlar suzib, labin tishlab,
Saal ketsang, qolar ushlab,
Yasama, yolg‘on noziga.

Ko‘nglim har yon boqa berma,
Suvday bo‘lib oqa berma,
O‘z yo‘lingdan chiqa berma
Har bir sanamning noziga.

Tol bilan terak chayqalar,
Har dam boshin baland olar,
Boqqan baqirayib qolar
Yasama, yolg‘on noziga.

Yig‘lab qolar sevar yoring,
Yostiqdoshing, vafodoring,
Toyma, to‘kilar ohoring,
Har bir sanamning noziga.

Hushingni yig‘, Avaz o‘g‘lon,
Aql o‘g‘irlar bunday jonon,
Qiyo ketib, bo‘lma sarson,
Yasama, yolg‘on noziga.

Avaz o'g'lon insofqa qaytib: "Har nechuk bo'lsa ham, men bu Ko'hi Qofda musofirman, yo'lim ochilguncha, shu Oqil parining qo'lidaman. Jo'rttaga vaqtincha muomala qilib turmasam, balki bu parizod meni bir baloga giriftor qilar", — deb Oqil pariga arzini bayon qilib, bir so'z dedi:

Arzimni eshitgin ey, mezbon pari,
Bu yerlarga bir ish bilan kelmisham,
Suv tagidan chiqib senga duch kelib,
Bu xosa hujrangga mehmon bo'lmisham.

Suv ostida turlik soya chayqalar,
Bu o'g'lon kimlarni axtarib kelar,
Yunus, Misqol parilar enam bo'lar,
Alarni axtarib bunda kelmisham.

Enamlar otamdan araz urgandi,
Men biluvda shunda kelib yurgandi,
Xon otam qop ketib Chambil shahrida,

Ko'hi Qof mulkida enam turgandi,
Alarni axtarib bunda kelmisham.

Kelganim yo'q sendaylarman yotmoqqa,
Yo bo'lmasa sayli chamam etmoqqa,
Kelganman enamni olib ketmoqqa,
Enamlarni izlab bunda kelmisham.

Turkmanlar elida o'zimman o'g'lon,
Og'a Yunus o'g'li, nomim Avazxon,
Yordam ber, qo'lingdan kelsa, Oqiljon,
Enamlarni izlab shunda kelmisham.

Bu so'zni Oqil pari Avaz o'g'londan eshitib, gul-gul ochilib, juda yayrab sochilib, kulib: "Eh, ha, hali men Avaz o'g'lonni mehmon qilib o'tiribmanmi?! Aytdim-ov, ko'rgandan bu odamzod ko'zimga nega issiq ko'rindi, deb. Avazxon, uch yuz yillik yo'ldan enangni olib ketgani kelibsan. Barakkalla, himmatingga! Men ta'rifingni Misqol paridan juda ko'p eshitganman. Shamoling o'ngidan kelibdi. Misqol pari ham, Og'a Yunus pari ham, otangning G'irko'k oti ham hozir shu Ko'hi Qof mamlakatida. Avval mening aytganimni qilib, shu kecha xos hujramda mening bilan birga yotib tursang, ertaga o'zim seni enanglar bilan uchrashtiraman", — deb bir necha joydan timsol keltirib, shu so'zni aytdi:

Qaddingga yarashar Qirmizi alvon,
Jamolingga monand bu bog'u bo'ston,
Shu kech aytganimni qilsang, Avazxon,
Erta bilan yetkazayin enangga.

Mehmon bo'p kelibsan manzilxonama,
Ochilgan gulzorga qushlar qo'nama,
Sinu siyang oppoq kumush tanama,
Erta bilan yetkazayin enangga.

Ishim yo'q men sening oyu sanangga,
Vaqtida yetarsan manzilgohingga,
Parvonalar bo'lsam shul kech tanangga,
Erta bilan yetkazayin enangga.


Jahonda yaxshilar davrini sursin,
To dunyo qoyim bo'p turgancha tursin,
Shul kecha mijgonim ko'zing supursin,
Erta bilan yetkazayin enangga.

Bu so'zlarni tingla, aziz mehmonim,
Fido bo'lsin deyman yo'lingda jonim,
Seningman bir bo'lsam, yo'qdir armonim,
Erta bilan yetkazarman enangga.

Qaddu qomatingga mosdir bu ma'voy,
Hech kimsadan qo'rqma, hech qilma parvoy,
Shul kecha xizmatning etsa Oqiloy,
Erta bilan yetkazayin enangga.

Avaz o'g'lon Oqil parining bu so'zini eshitib: "Men Chambildan chiqayotganimda, Og'a Yunus va Misqol enamlarni Chambilga qaytarib olib kelmay, hargiz ayol xalqi bilan do'stlashib, suhbat qilmayman, deb qasam ichganman, Bo'lmasa, senday parilar bilan allaqachon do'stlashib, suhbatlashgan bo'lur edim. Ammo nachora. Mayli, sen sari ham borib, hozircha sening bilan uch-much suhbatlashib, dastibo's qilishib chiqib, ishqilib, ichgan qasamimni sindirmaslikning ilojini qilib, shu kechani o'tkazsak. Ertaga meni enamlar bilan uchrashitirsang. Undan keyin enamlarni Chambilga olib ketganda, sen ham birga borsang. Mayli, Chambilda sening bilan qancha suhbat qilari bo'lsam, qilsam", — dedi. Oqil pari ham shunga ko'ndi. Shuytib, Avaz o'g'lon Oqil parining xos hujrasida mehmon bo'lib qoldi. Endi Og'a Yunus va Misqol parilardan eshitsangiz.

Yunus, Misqol allaqachon pari qizlardan: "Oqil pari shisha hovuzning ichidan bir odamzodni topib olibdi, u odamzodga xushtor bo'lib qolibdi, shuytib, hujrasiga olib kelibdi", — deb eshitib, gumonsirab, erta bilan xizmatkor qizlardan uchtasini Oqil parinikiga yubordi. Shunda Oqil pari Yunus, Misqolning xizmatkorlari odamzodning daragini eshitib kelganini bilib, Avaz o'g'longa qarab, bir so'z dedi:



Enanglar oldidan kishi kelibdi,
Yur, Avazjon, xizmatiga borayik,
Sening kelganliging ma'lum bo'libdi,
Yur, Avazjon, xizmatiga borayik.

Ko'hi Qofda ko'pdir labi qirmizlar,
Har biri quyoshga, oyga mengizlar,
Kelibdi chopishib yugurdak qizlar,
Yur, Avazjon, xizmatiga borayik.

Kumushdandir darvozaning chegasi,
Chorlabdi bizlarni yurtning egasi,
Misqol enang Ko'hi Qofning bekasi,
Yur, Avazjon, xizmatiga borayik.

Alqissa, shunda Avaz o'g'lon Oqil pariga qarab: "Qo'y-e, agar bormayman desam, orqalab olib ketguday chog'ing bor. Qo'y, oppoq Oqil pari, meni orqalab, gulday badaning dog'lanib qolmasin. Mayli o'zimoq boray", — deb Oqil pari bilan Avaz o'g'lon qo'l ushlashib, xizmatchi qizlarga ergashib, Yunus, Misqol parilarning oldiga ketdilar. Toshkentga o'xshagan shunday ship-shirg'oy ko'cha-bog'lar, maydon va ravoqlar bilan yurib, Yunus, Misqol parilar turgan joyga yetib bordilar. Yunus, Misqol parilar Avaz o'g'lonni tanib, ko'rishib, shunda Misqol pari Avaz o'g'longa qarab, ahvolini so'rab, bir so'z dedi:

Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin,
Qo'lingda tutganing qizil gul bo'lsin,
Uch yuz yillik manzil oshib bu joyga
Chambilbeldan kelib, bolam, yo'l bo'lsin?

Suluvlar taqqani jalojil bo'lsin,
Kelgan joying Ko'hi Qofday bel bo'lsin,
Avval-boshdan kelishingni so'rayman,
Bu uzoq yurtlarga senga yo'l bo'lsin?

Yo bo'lmasa, sen ham araz urdingmi,
Biz kelgan so'ng ko'p xo'rliklar ko'rdingmi?

Bu so'zni Misqol pari Avaz o'g'longa aytib, Go'ro'g'li sultonning omonligini so'rab, yana bir so'z dedi:

Kelgan bo'lsang oshib Chambilbelidan,
Araz urib Taka-Yovmit elidan,
Ayra tushib odamzdoning xilidan,
So'z eshitgin bunda enang tilidan,
Biz ko'rgan elatlar — bari omonmi?

Loladay jaynagan pari makoni,
Oshib kelding qancha soyu darani,
Hushiga keldimi Chambil sultoni,
Hasanman yigitlar — bari omonmi?

Oqshom oyga tenglashtirib yuzlari,
Ko'klamzorga botmay bosgan izlari,
Ohu ko'zli, qulon sochli qizlari,
Xon Dalliman Gulqizoylar omonmi?

Shunda Avaz o'g'lon jo'rtga yig'lab, Yunus, Misqollarga qarab: "Enalar, siz so'rmang, men aytmayin, Turkman elining sultoni, Chambilning xoni Go'ro'g'li otam sizlardan judo bo'lib, sizlarning hasratingizda yig'lay-yig'lay sil bo'lib, oxiri o'ldi, Chambil beega qoldi", — deb shu so'zni aytdi:

Yugurdak qizchalar yo'lni boshlashib,
Ikkalamiz qo'l bilan qo'l ushlashib,
Malika oldiga ko'ngil xushlashib,
Yur, Avazjon, xizmatiga borayik.

Har kun erta tushar edim salomga,
Shomisqol pariday qoshi qalamga,
Quloq sol, mehmonim, xullas kalomga,
Yur, Avazjon, xizmatiga borayik.

Oq terakday Oqil pari chayqalar,
Bordi-keldi bilan tomir quyqalar,
Bormasa, mehmonim mezbom orqalar,
Yur, Avazjon, xizmatiga borayik!

Har yerlarda darbadar bo'p yurdingmi,
Xabar bergin, bolam, senga yo'l bo'lsin?

Chambilda bir gapdan ko'ngling qoldimi,
Maslahatni yovuz beklar oldimi,
Shuytib, kelishingga sabab bo'ldimi,
Gayak qo'zim, bunda senga yo'l bo'lsin?

Yig'laganlar yosh olgandir ko'ziga,
Shashqator endirib qizil yuziga,
Quloq solib, Misqol enang so'ziga,
Javob bergin, bolam, senga yo'l bo'lsin?

Bahor chog'i jaynab baland bellari,
Yayrab o'ynab yurgan qizu ullari,
Taka, yovmit, sari, ko'klang ellari,
Barcha to'qson to'qqiz biylar omonmi?

Misqol keldi Yunus bilan bu yona,
Parizodlik quvvatiga tayana,
Qomatingdan enang bo'lsin parvona,
Aytgin, bolam, mushtiparlar omonmi?

Xo'jatov ustida o'ynagan otlar,
Dah desa, Asqarday bellardan hatlar,
Qator oq o'tovli o'ba, elatlar,
Katta-kichik og'aynilar omonmi?

Sizga yolg'on, menga chindir, enalar,
Har zamon ichimga alam, enalar,
Ko'zimdan ham yosh quyulib, enalar,
Yurt egasi xon otamdan ayrilib.

O'ylasam, boz yana ko'nglim buzildi,
Sizni ko'rib tag'i bag'rim ezildi,
O'g'lonlar Chambilda yetim bo'p qoldi,
Shuytib keldim, Sultonimdan ayrilib.

Hay attang-a, bo'lmadinglar boshida,
Otamni ko'mganda aning qoshida,

Bu so'zni Avaz o'g'lonidan eshitib: "Obbo, bevaqt araz urgan ekanmiz. Go'ro'g'li sultonning dunyodan o'tishini tush bilaylikmi?! Xalqning malomatiga qolibmiz. "Pari xalqi bevafo bo'lar ekan-da, avval tegariga tegib, keyin o'larini bilib, bahona qilib, araz urib ketar ekan-da", — deb barcha bizni gap qilariga qolibdi. Endi bo'lar ish bo'libdi. Ikkalamizning ham sevib tekkan yorimiz edi. Hali ham Avaz o'g'lon bilan Chambilga boraylik. Bizni ko'rsin, deb sultonni omonat qo'yan bo'lsa, borib oxirgi marta diydorini ko'raylik. Xoldor mahram Chambilda Hasaxon, yana bir necha yaxshilar bilan maslahatlashib, Avaz o'g'lonni bu yoqlarga yuboribdi. Endi, Avaz bolam, bu Ko'hi Qof mulkida gaplashib o'tirishga ham vaqt qolmadi. Darhol tosh tablaga kirib, G'irko'kni abzallab minib chiq", — deyishib Yunus, Misqol parilar Go'ro'g'li sultonga motam boshlab, qora kiyishib, Chambilga jo'nashga choqlana berdilar. Avaz o'g'lon tashqariga chiqib, xizmatkorlar ko'rsatgan tosh talabga kirib, G'irotni abzallab olib chiqdi. Ungacha Yunus, Misqol parilar bulut haybatli katta bir Oqdevni keltirib choqlab, o'zlari Avaz o'g'lonning kelishini kutib, Oqdevning ustiga chiqayotgan edi. G'irotni olib Avaz o'g'lon ham keldi. Yunus, Misqol parilar ishorat qilib, Avaz o'g'lon ham G'irotni yetaklab Oqdevning ustiga chiqdi. Shunda Oqil pari Misqol pariga qarab, marg'ulini tarab, zulfini burab, o'zini Chambilga birga olib ketishini so'rab, elanib, bir so'z dedi:

Xonim, eshit menday pari arzini,
Ko'hi Qofda ayri qop ketgim kelmas,
Senday aziz, zoti ulug' bekamdan
Ko'hi Qofda ayri qop ketgim kelmas.

Ichki xayolimni hech kimsa bilmas,
Sening suhbatlaring so'ngra topilmas,
Men ham sening birla ketmasam bo'lmas,
Ko'hi Qofda ayri qop ketgim kelmas.

Ucha bilmay qanotimdan qayrilib,
Yotgan joyda iqbolimdan tayrilib,

Misqol pari Oqil paridan bu so'zni eshitib, kecha Avaz o'g'lonning ishqiy buning miyasidan ushlagani-ni bilib, Og'a Yunus pariga ham voqeani bildirib, Oqil parining ham Oqdevning ustiga chiqishiga ijozat berdi.

Alqissa, Oqdev bulutday qo'zg'alib, bularning barini ko'tarib, falakka parvoz aylab, uchib kela berdi... Uch soat deganda, kam-kam pastlab, o'zini rostlab, Badbaxt tog'idan enib, Asqar tog'ining bir darasiga qo'ndi. Undan keyin Avaz o'g'lon enalariga qarab, ulardan ijozat so'rab, bir so'z dedi:

Enalar, bering ijozat,
Borib kelay Chambilbelga,
Sizlarni qaytib keldi, deb,
Xabar beray turkman elga.

O'zim boribon xabarga,
Bildirayin yoronlarga,

Naylayin, enalar, taqdir ishi-da,
Yig'lab keldim, Go'ro'g'lidan ayrilib.

Hay attang-a, yo'qliklaring bilindi,
Dushman kulib, do'stning bag'ri tilindi,
Yetti kun Chambilda motam qilindi.
Shuytib keldim, xon otamdan ayrilib.

G'anim kelib, g'am oshiga to'ydilar,
Dalli, Gulqiz yig'lab sochin yoydilar,
Siz borguncha omonat qip qo'ydilar.
Avaz keldi, otasidan ayrilib.

Avazxunday mehmonimdan ayrilib,
Ko'hi Qof mulkida qop ketgim kelmas.

O'g'ling oldi meni jon-u dilimni,
Odamzod, deb tashlay o'sgan elimni,
Qop ketmayin ko'kka qilib qo'limni,
Ko'hi Qofda ayri qop ketgim kelmas.

Eshitgin kanizing ohu zorini,
Avaz uchun tashlar har na borini,
Qoldirib ketmagin, Oqil parini,
Ko'hi Qofda ayri qop ketgim kelmas.

Sultonni kafanga cho'lg'ab,
Omonat qo'ygandir g'orga,
Enalar, bering ijozat,
Borib kelay Chambilbelga.

Kelganingiz turkman bilsin,
G'orga yig'ilishib kelsin,

Sizlar bilan hol so‘rashib,
Sultonning izzatin qilsin.
Enalar, bering ijozat,
Borib kelay Chambilbelga.

Chiqaray zaiflar barin,
Elning katta-kichiklarin,
Yig‘lashib g‘or dalasida
Ko‘rishsin xon otam yorin.

Enalar, bering ijozat,
Borib kelay Chambilbelga.
So‘zlar sizga Avaz o‘g‘lon,
Deganlarim emas yol‘on,
G‘orda kafanga cho‘lg‘onib,
Yotibdi Go‘ro‘g‘li sulton.

Enalar, bering ijozat,
Borib kelay Chambilbelga.

Og‘a Yunus pari bilan Misqol pari bunday o‘ylashsa, Avaz o‘g‘lonning so‘zi to‘g‘ri. “Axir, Go‘ro‘g‘li sulton uncha-muncha odam emaski, ulay-bulay qilib ko‘mib qo‘yag‘oysa. To‘g‘ri, ulug‘ odamning motami ham ulug‘ bo‘lishi kerak. Elatning er va ayollari yig‘ilib, Go‘ro‘g‘li sultonning jasaki yotgan g‘orga kelsa, kelsin. Bizlarning ham Ko‘hi Qofday uzoq yurtdan sultonning izzati uchun kelganligimiz ma‘lum bo‘lsin”, — deyishib Avaz o‘g‘longa Chambilga borib-kelishga ijozat berdilar.

Avaz o‘g‘lon Yunus, Misqol parilarni tog‘da qoldirib, G‘irko‘kka minib, tezlik bilan Chambilga yetib kelib, Og‘a Yunus, Misqol parilarning tog‘da qolganini, o‘zining ishlatgan makr-u hiylalarini Go‘ro‘g‘li sulton, Xoldor mahram, Hasanxonga, Chambildagi barcha katta-kichik er-u ayollarga bildirdi. Ana, Go‘ro‘g‘li sulton yorlarining daragini olib, darrov tuzalib, ishtahasi qo‘zg‘alib, bir qo‘y go‘shini pok-poki-za tushirib olib, toza quvvatga enib, Chambilning barcha katta-kichiklari bilan tog‘da bir g‘orga borib, ham-malarini tashqariga qo‘yib, o‘zi g‘orning to‘riga kirib, kafanga o‘ralib, jo‘rttaga o‘lik bo‘lib yota berdi.

Shuytib, Avaz o‘g‘lon bu yoqni bartaraf qilib, G‘irko‘kka minib, Asqar tog‘iga qarab yo‘l tortdi. Tulporga nima degan gap. Darrov yer bag‘irlab uchib, Asqar tog‘ining darasidagi Yunus, Misqol parilar turgan joyga yetdi. Shunda Avaz o‘g‘lon pari enalariga qarab, bir so‘z dedi:

Chambil xalqin bari chiqdi yo‘llarga,
Hammasi ham sovg‘a olib qo‘llarga,
Ko‘hi Qofdan kelganingiz, enalar,
Doston bo‘ladigan bo‘ldi tillarga.

Qirq yigitlar sultonim, deb zor aylab,
Bir necha oyimlar sochini taylab,
Bari motam libosiga burkanib,
Hammasi boshiga ko‘k latta boylab.

G‘or og‘ziga kelib yig‘lab turibdi,
Xoldor, Hasan ko‘ksin dog‘lab turibdi,
Ko‘hi Qofdan kelibdi deb sizlarni,
Xizmat uchun belin bog‘lab turibdi.

Shuytib chambillikka bo‘lgan qiyomat,
Katta-kichik chekar ohu nadomat,
Yuringizlar, endi g‘orga boraylik,
Boshqa so‘zni aytib turmoq na hojat.

Turkman xalqi yig‘lar anda zoru zor,
Sizlarni kelat deb anda intizor,
Yuringizlar endi g‘orga boraylik,
Go‘ro‘g‘li arvohi bo‘lsa bizga yor.

Shunda qaynab-jo‘shar bo‘ldi parilar,
Bunday vaqtlar ko‘ngil qurg‘ur urilar,

Asqar tog‘ning oq buluti turilar,
Undan keyin ko‘rinadi parilar.


To‘ram, deyishib yosh olishdi ko‘zlarga,
Kuya suykab oyday oppoq yuzlarga,
Ey, yoronlar, bayon etsam sizlarga,
Bu qissalar qo‘shiq bo‘ldi bizlarga.

Jo‘shqin tilim, endi qaynab jo‘sh endi,
Yor yo‘liga motam qilib tush endi,
Oqar bo‘ldi mungli ko‘zdan yosh endi,
Yunus, Misqol vafodordan ayrilib,
Toshga ursa og‘riydimi bosh endi.

Oqdevni omonat tog‘da qo‘ydilar,
Bu dunyoning tashvishidan to‘ydilar,
Yo‘l boshla, Avazjon, bizga yo‘l boshla,
Deb yalangbosh bo‘p sochlarini yoydilar.

Or-nomusni endi otib tashladi,
Go‘ro‘g‘li deb xumor ko‘zni yoshladi,
G‘animat fursat, deb shunda Avazxon
Parilarni g‘orga tomon boshladi.

Oqil ham keladi shunda iyarib,
Bilmayman qandayin o‘ylarga borib,
Asqar tog‘dan berman tushib keladi,
Odamzodning adir, tog‘larin ko‘rib.



Cho‘qqi, gazalarni qirqib o‘tdilar,
Shuyta-shuyta oxir g‘orga yetdilar,
Chambildan kep turgan eru ayollar
Parilar qo‘liga sovg‘a tutdilar.

Yunus, Misqol hech kimsaga boqmadi,
Balki hech kim parilarga yoqmadi,
Bunday pilla so‘z kirami quloqqa,
To sultonga yetmay hovur chiqmadi.

Shuytib, hech kimsaga boqmay o‘tdilar,
Tez yurishib g‘or yo‘lini tutdilar,
Zor yig‘lashib kirib shunda ichkari,
Xon Go‘ro‘g‘li yotgan joyga yetdilar.

To‘la qip aytmasam so‘zim chala-da,
Odamzod ham ko‘p mug‘ombir, balo-da,
Parilarni g‘or to‘riga yuborib,
Avaz qoldi beklar bilan dalada.

Parizodlar g‘or to‘rida turdilar,
O‘z-o‘zidan o‘zlarini urdilar,
Oxirgi diydor deb, yum-yum yig‘lashib;
Go‘ro‘g‘lining yuzin ochib ko‘rdilar.

Bu gaplarga sulton dilin xushladi,
Og‘zin ochib aksa ura boshladi,

Yunus, Misqol parilar Go‘ro‘g‘li sultonning tirilganini ko‘rishib, azalari xursandlikka aylanishib, Go‘ro‘g‘li sulton bilan ko‘rishib, yarashib, g‘or ichida yechuvli turgan kiyimlarini topib, sultonga kiydirib, shaylab qo‘ydilar. Bu shobirlarni bilib-eshitib turgan Xoldor mahram, Hasanxon va Avaz o‘g‘lonlar ham g‘orning ichiga kirishib, jo‘rttaga Go‘ro‘g‘li sulton bilan ko‘rishib, parilarga yuzoydin aytishdilar. Shunda Misqol pari Asqar tog‘ining kamarida kutib o‘tirgan Oqdevga borib javob berib, Ko‘hi Qofga jo‘natib yubormoqchi ekanini Go‘ro‘g‘li sultonga aytdi. Shunda Avaz o‘g‘lon Misqol pariga qarab: “Ena, dunyoda bir qo‘rqan bilan bir quvongan yomon. Siz hozir yangi quvonib, g‘alati bo‘lib turgan kishisiz. Menga ijozat bersangiz, men borib, Oqdevga o‘zim hamma gapni aytib, Ko‘hi Qofga jo‘natib yuborsam”, — deb turdi. Misqol pari: “Bo‘lmasa, Oqdevga shuni qo‘shib ayt. Borib, barcha dev-u parilarga o‘zi hukmronlik qila bersin”, — deb Avaz o‘g‘longa ijozat berib yubordi.

Ana shuytib, Avaz o‘g‘lon G‘irko‘kni minib, Asqar tog‘ining narigi kamariga chiqib ketdi. Oqdev Avaz o‘g‘lonning bir o‘zi kelayotganini ko‘rib: “Ha, jiyanim Avazjon, yengil qaytibsan. Yunus, Misqol parilar qani?” — deb turibdi. Shunda Avaz o‘g‘lon: “Ey, Oqdev tog‘a, enamlar karomat qildi, qadamlari yoqib, xon otam tirildi. Misqol enam meni senga yubordi. Ko‘hi Qofga qaytib borar ekansan, u yerdagi jami dev-u parilarga podsholik qilib turar ekansan. Misqol enamning senga aytgan gapi shul”, — deb turdi. Avaz o‘g‘lonning bu so‘zini eshitib, Oqdev qulluq qilib, tezlik bilan Ko‘hi Qofga qarab uchib ketdi.

Shuytib, bu yoqda Go‘ro‘g‘li sulton, Yunus, Misqol, Xoldor mahram, Hasanxon, xon Dalli, Oygulqiz va barcha katta-kichiklar shod-u xurramlik bilan Chambilga qaytdilar. Avaz o‘g‘lon ham Asqar tog‘ining kamaridana qaytib ketdi. Oqil pari Avaz o‘g‘lonning sevikli yori bor ekanini bildi. Pari xalqiga kundosh desa, joni chiqquday qattiq bo‘lib ketar edi. Parilarning rashki shunday qattiq bo‘lur edi. Oqil pariga saylatganda, shuytib, Avaz o‘g‘lonni xohlamadi. Qirq yigitlarning bir bo‘ydog‘i bor edi. O‘shanga tegdi. Go‘ro‘g‘li sulton otalik qilib, Oqil parini o‘sha xohlagan yigitiga nikoh qildirdi. Endi G‘irko‘k ham, so‘tasi ham, Go‘ro‘g‘li sultonning o‘zida edi. Shuytib, Go‘ro‘g‘li sulton elga katta chulon berib yotdi.

Uyqudan turganday bo‘lib, yoronlar,
Yunusman Misqolni mahkam ushladi.

— Sizlar kelib, o‘lgan jismim tirildi,
Qayta boshdan chiqqan jonim berildi,
Endi barcha g‘am-alamlar arildi,
Quchoqlashib yarashaylik, parilar!

G‘orga kirdingizlar Masih misoli,
Jon bag‘ishlar ekan pari jamoli,
Pari jamolining bo‘lmas zavoli,
Qo‘l ushlashib yarashaylik, parilar!

Bir meni deb Ko‘hi Qofdan kelibsiz,
Kelib turib, jonga darmon bo‘libsiz,
Avliyo qilolmas ishni qilibsiz,
Keling endi, yarashaylik, parilar!

Parilar, parilar, oppoq parilar,
Oppoq qo‘li har badanga dorilar,
Men tirildim, endi sho‘rim arilar,
Qo‘l beringlar, yarashaylik parilar!

Shul ekan azalda haqning farmoni,
Ketgan edi, keldi tanning darmoni,
Go‘ro‘g‘lining endi yo‘qdir armoni,
Quchoqlashib yarashaylik parilar!